



## COMPARATIVE AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF ARABIC LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Daminov Bakhromjon Zakirdjanovich**

Independent Researcher at the A. Avloni National Research Institute,  
Senior Lecturer at the Al-Azhar Department of  
Arabic Language and Literature of the International Academy of Islamic  
Studies of Uzbekistan dbaha167@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15710850>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> June 2025

Online: 21<sup>st</sup> June 2025

### KEYWORDS

Arabic language, listening  
comprehension skills,  
experimental testing,  
higher education,  
"Scaffolding" model,  
linguistic competence.

### ABSTRACT

*The article analyzes experimental studies on the development of Arabic listening comprehension skills in higher education institutions. The study involved experimental and control groups, applying new teaching materials and the "Scaffolding" model technology. The results show a significant improvement in listening comprehension skills within the experimental group, proving the effectiveness of the proposed methodology.*

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ARAB TILINI TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARINING QIYOSIY VA STATISTIK TAHLILI

**Daminov Baxromjon Zakirdjanovich**

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi,  
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasida katta  
o'qituvchisi  
dbaha167@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15710850>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> June 2025

Online: 21<sup>st</sup> June 2025

### KEYWORDS

Arab tili, tinglab  
tushunish ko'nikmasi,  
tajriba-sinov, oliy ta'lim,  
"Scaffolding" modeli,  
lingvistik kompetensiya.

### ABSTRACT

*Maqolada oliy ta'lim muassasalarida arab tilini tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlari ishtirok etib, yangi o'quv materiallari va "Scaffolding" modeli texnologiyasi qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida tinglab tushunish ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan, bu esa taklif etilgan metodikaning samaradorligini isbotlaydi.*

Hozirgi kunda arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu tilni o'rganishga bo'lgan talabni qondirish maqsadida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, arab tilini zamonaviy standartlarga mos ravishda o'rgatish uchun



ilmiy izlaishlar olib borilmoqda va tajribadan o'tqazilmoqda. Ushbu jarayonning bir namunasi sifatida oliy talim talabalarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mavzusi doirasida ilmiy ish qilinib uning tajriba sinov ishari bir necha oliy ta'lim muassasalarida olib borilda. Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari o'quv jarayonida o'qituvchi va talabalarining o'quv faoliyatini har tomonlama o'rganish hamda talabalar lisoniy ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha umumiy xulosalar chiqarishni nazarda tutadi. Tajriba-sinov ishlari tabiiy sharoitda o'tkazildi. Tajribada qatnashuvchi talabalarining guruhlar tarkibi (tajriba va nazorat guruhi) belgilandi. Tajriba-sinov o'tkazish uchun yuqorida ko'rsatilgan oliy ta'lim muassasalardan tajriba guruhi (TG)da 90 ta va nazorat guruhi (NG)da 90 ta talaba ishtirok etdi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, har bir guruhda soatlar miqdori teng, arab tili o'rganish dasturi, talabalarining lisoniy jihatdan tayyorgarligi, guruhdagi ta'lim oluvchilar soni hamda tinglab tushunish ko'nikmasining egallanishini ta'minlovchi o'quv materiallariga o'zgarish kiritilmadi.

Talabalarining arab tili bo'yicha tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlanganlik darajasining nisbatan tengligi ob'ektiv ko'rsatkichlar olinishiga imkon berdi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining TG va NGLarda arab tilida tinglab tushunish ko'nikmasining A2 darajasida egallanishi bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarida foydalanilgan materiallar: tajriba-sinov ishlarida tadqiqotchi tomonidan nashr ettirilgan "Arab tili (A2 darajasi uchun tinglab tushunish matnlari)" nomli o'quv qo'llanmaga kiritilgan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va kommunikativ mashqlar, nutq mavzulari doirasida tilga oid ko'nikmalarni rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlar bajarilishini osonlashtiruvchi almashtiriladigan jadvallar hamda kommunikatsiya va interaksiya sodir bo'lishini ta'minlovchi so'rovnoma jadvallarini qo'llash texnologiyasi joriy etildi.

Ma'lumki, lingvistik kompetensiya nutqiy va til kompetensiyalaridan iborat. Nutqiy kompetensiya tarkibiga tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv kiritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida chet til o'qitishning amaliy maqsadi tinglab tushunish va gapirish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, o'quv dasturida belgilangan (A2) darajaning talabalar egallashlari lozim bo'lgan tinglab tushunish ko'nikmalari tekshirildi.

Oliy ta'lim muassasalarida nutqiy va lisoniy kompetensiyalarning DTS talablariga muvofiq egallanishini ta'minlash maqsadida tajriba guruhlaridagi darslar tadqiqot ishimizimizning uchinchi bobida tavsiya etilgan audiovizual vositalar asosida tashkil etildi.

Til ko'nikmalari egallanishiga mo'ljallangan mashqlarning oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash maqsadida «Scaffolding» modelining almashtiriladigan jadvallaridan hamda mashg'ulotlarda kommunikatsiya va interaksiya sodir bo'lishini ta'minlovchi so'rovnoma jadvallaridan foydalanish texnologiyasi bo'yicha professor-o'qituvchilarga tavsiyalar berib borildi.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov maydoni sifatida tanlangan oliy ta'lim muassasalarda talabalar bilan suhbatlar o'tkazildi, professor-o'qituvchilarga savolnomalar tarqatildi, bevosita ta'lim jarayoniga aralashgan holda darslar kuzatildi va tahlil qilindi.

Dastlab tajriba-sinov ishlarini olib borishda o'tkazilgan suhbatlarning natijalari xususida qisqacha to'xtalamiz. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida chet til o'rganishga xohish, istak va ehtiyojlarni, chet til o'rganishga ichki turtki (motivatsiya)ning shakllanganligini, mashg'ulotlarda talabalarining psixofizologik holatlari (charchash, zerikish, chalg'ish,



tortinchoqlik)ni aniqlash maqsadida suhbatlar o'tkazildi. Tortinchoqlikni oldini olish maqsadida suhbatlar guruh o'qituvchilari tomonidan tadqiqotchi tavsiya etgan savollar asosida olib borildi va talabalarning javoblari maxsus jadvalda qayd etildi.

Arab tili mashg'ulotlarida talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida berilgan savollardan aniqlandiki, talabalarning 234 nafari (65%) darslarda zerikishmaydi, 98 nafari (27.2%) mashg'ulot o'rtasida toliqib qolishadi, 28 nafari (7.8 %) esa uzoq muddat diqqat bilan o'tira olishmaydi. «Mashg'ulotlarda ustozingiz va kursdoshlaringiz bilan arab tilida gaplashasizmi?» savoliga 193 nafar (55.4%) talaba «ha», 96 (26.1%) nafar talaba «yo'q», 71 (18%) nafar talaba «ba'zan gaplashaman» javoblarini berishdi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida arab tilidan tinglab tushunish ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha dastlabki to'xtam natijalarini olish uchun darslik va o'quv qo'llanmalar asosida tayyorlangan savollardan foydalanildi. Tajriba-sinov oldi to'xtam natijalarini olish uchun 90 nafar (3.2.1-jadvalga qarang) talaba bilan o'tkazilgan suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, ta'lim oluvchilarning 16% (14 nafar) berilgan savollarga javob berishdi, 42% (38 nafar) savollarni tushunishdi va 10 ta savoldan o'rtacha 7 tasiga javob berishdi. 13% (12 nafar) talaba savollarni qisman tushunishdi va qisqa javoblar berishgan bo'lsa, qolgan 29% (26 nafar) savollarga javob berishda juda. Dastlabki to'xtam natijalarini aniqlash ishlari 2022-2023 o'quv yilida olib borildi.

### 3.2.1-jadval

**Pedagogik tajriba-sinov jarayoni maydoni tavsifi va unda ishtirok etgan o'qituvchilar va o'quvchilar soni**

t/r	OTMLar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Jami
1.	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,	30	30	60
2.	Oriental universiteti,	30	30	60
3.	Samarqand davlat chet tillari institute	30	30	60
	<b>Jami:</b>	90	90	180

Qayd etilgan natijaning sabablarini aniqlash maqsadida mashg'ulotlar kuzatildi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida arab tili o'qituvchilar bilan qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazildi. Suhbatlar, dars kuzatuvlari va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, aksariyat o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini e'tirof etishsa-da, amaliyotda an'anaviy usullardan foydalanishmoqda, guruhdagi ilg'or talabalarga e'tibor ko'proq qaratilib, o'zlashtirishga qiynalayotgan talabalarga maxsus pedagogik yordam ko'rsatilmayapti.

Aksariyat o'qituvchilar faqat darslik-majmuada taqdim etilgan mashqlarni bajarish bilan cheklanishmoqda, mashqlarni oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash usul va vositalardan foydalanilmaydi. Juda kam muallimlar arab tili ta'limini tashkil etish borasida o'quv materialini sinchkovlik bilan tanlaydilar.

Shuningdek, mashg'ulotlarda audiovizual vositalardan foydalanilmaydi. Audio va video formatdagi materiallar noutbuk yordamida namoyish etilmoqda. Natijada, ta'lim oluvchilar



audio yozuvlarni tinglab tushunishda qiynalishadi. Dars kuzatuv va o'tkazilgan so'rovnomalar asosida tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar ilova etiladi.

Talabalarining tinglab tushunish va gapirish bo'yicha malakalari National Education Network mutaxassislari tomonidan tayyorlangan A2 baholash mezonlari, davlat talablari va Arab tili fanidan tayanch o'quv dasturi asosida tekshirib borildi.

I nazorat guruhida A2 daraja bo'yicha tinglab tushunish ko'nikmalari quyidagicha egallandi: 18,9% «a'lo», 26,7% «yaxshi» va 54,4% «qoniqarli». I tajriba guruhi talabalarining ko'rsatkichi esa 34,4% «a'lo», 38,8% «yaxshi» va 26,6% «qoniqarli» baholarni tashkil etdi. II guruh talabalarining arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini, ularning bilim darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan testlarda ham tajriba guruhi talabalarini nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishganligining guvohi bo'ldik. II nazorat guruhi talabalarining tinglab tushunish bo'yicha bajargan ishlarida oldingi yildagiga nisbatan farqlanish kuzatildi: 20% «a'lo», 26,7 «yaxshi» va 53,3% esa «qoniqarli».

II tajriba guruhi talabalarining ko'rsatkichlari foizlar bo'yicha quyidagicha bo'ldi: 33,3% «a'lo», 40% «yaxshi» ravishda topshirganlar va «qoniqarli» baholar esa 26,6% ni tashkil etdi.

III guruh talabalarini bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlarini yoritishga o'tamiz. Ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda test va mashqlardan foydalanildi. III nazorat guruhi talabalarining ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi: «a'lo» baholarga bajargan talabalar 18,9% ni, «yaxshi» 30% ni, «qoniqarli» 51,1% foizni tashkil etdi. III tajriba guruhi talabalarining o'zlashtirishida 34,4% «a'lo», 42,2% «yaxshi», va 23,3 % «qoniqarli» baholar qayd etildi.


IV guruh talabalarini tomonidan bajarilgan testlar va tayyorlangan portfoliolar tahlili asosida xulosa chiqaradigan bo'lsak, tajriba guruhi talabalarini A2 daraja talabalariga muvofiq ko'nikmalarni quyidagicha egallashdi: a'lo 33,6%, o'rta 40,6%, qoniqarli 25,8% (3.2.1-jadvallarga qarang):

### 3.2.1-jadval

#### Talabalarining tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov oldi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Oliy ta'lim muassasalar	Nazorat guruhi – 90 nafar talaba						Tajriba-sinov guruhi – 90 talaba					
	a'lo		o'rta		qoniqarli		a'lo		o'rta		qoniqarli	
	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%
O'zXIA	4	13.3	9	30.0	17	56.7	5	16.7	8	26.7	17	56.7
OU	6	20.0	8	26.7	16	53.3	6	20.0	8	26.7	16	53.3
SamDCHTI	5	16.7	7	23.3	18	60.0	4	13.3	8	26.7	18	60.0
o'rtachasi	15	16.6	24	26.7	51	56.7	16	17.8	23	25.5	51	56.7

Talabalarining tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov oldi o'zlashtirish ko'rsatkichlari (3.2.1-rasmga qarang).



**3.2.1-rasm. Talabalarning tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov oldi o'zlashtirish ko'rsatkichlari.**


Yuqoridagi jadval va diagrammalardagi ko'rsatkichlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, NG va TGda tajriba-sinov oldidan talabalar tomonidan arab tili bo'yicha tinglab tushunish ko'nikmalarining egallanganlik darajasi deyarli bir xil.

**3.2.2-jadval**

**Talabalarning tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov ishlaridan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlari**

Oliy ta'lim muassasalar	Nazorat guruhi – 90 nafar talaba						Tajriba-sinov guruhi – 90 talaba					
	a'lo		o'rta		qoniqarli		a'lo		o'rta		qoniqarli	
	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%	talabalar	%
O'zXIA	6	20.0	11	36.4	13	43.3	11	36.4	14	46.7	5	16.7
OU	7	23.3	8	26.7	15	50.0	9	30.0	11	36.4	10	33.3
SamDCHTI	6	20.0	10	33.3	14	46.7	11	36.4	13	43.3	6	20.0
	19	21,1	29	32.2	42	46.7	31	34.5	38	42.2	21	23.3

Talabalarning tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov ishlaridan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlari (3.2.2-rasmga qarang).





### 3.2.2-rasm. Talabalarining tinglab tushunish bo'yicha tajriba-sinov ishlaridan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlari.

NGda a'lo darajada o'zlashtirish 21.1%ni, o'rta darajada o'zlashtirish 32.2%ni va qoniqarli o'zlashtirish 46.7%ni tashkil etadi. TGda a'lo darajada o'zlashtirish 34.4%, o'rta darajada o'zlashtirish 42.2% va qoniqarli darajada o'zlashtirish 23.3% qayd etilgan (3.2.1 va 3.2.2 jadvallarga qarang).

Ta'lim oluvchilarning tajriba sinov oldi va tajriba-sinov ishlaridan keyingi o'zlashtirish o'sishi quyidagi ko'rsatkichlarda ifodalanadi (3.2.3-jadvalga qarang).

### 3.2.3-jadval

#### Talabalarining tajriba sinov oldi va tajriba-sinov ishlaridan keyingi o'zlashtirish dinamikasi (%)

	A'lo	O'rta	Qoniqarli
Nazorat guruhlarida	+ 4.4	+ 5.5	- 9.9
Tajriba-sinov guruhlarida	+ 16.6	+ 24.4	- 33.4

Ushbu ma'lumotlarga tayanib tajriba-sinov ishlari samarador tashkil etilganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Tajriba-sinov natijalari tahlilining ko'rsatishicha, til ko'nikmalarining egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar bajarilishining osonlashtirilishi natijasida talabalar o'zlarini stressdan xoli va himoyalangan his qilishdi. Natijada mashqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi ta'minlandi va arab tilini tinglab tushunish ko'nikmalari rivojlanishiga erishildi.

Arab tilini tinglab tushunish ko'nikmalarining egallanishiga almashtiriladigan jadvallarni to'ldirilishi jarayonida erishildi. Talabalarining arab tilini o'rganish jarayonida undan foydalanishlari, ya'ni so'rovnoma jadvallarini to'ldirish jarayonida interaksiya va kommunikatsiya sodir bo'lishi ta'minlandi. Tinglab tushunish jarayonida ikkala guruhda ham sezilarli natijalar bo'lishiga qaramay, TG talabalarining faolligi, bilim darajasining o'sganligi, ularda arab tilida tinglab tushunish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi NGga nisbatan sezilarli farq qiladi. Fanlar bo'yicha ham TG o'quvchilarining oldinga siljiganligiga guvoh bo'ldik.

### References:

1. Алмазова, Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной компетентности при обучении иностранному языку в неязыковом вузе: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02 / Н.И. Алмазова. - Санкт - Петербург, 2003. -446 с.
2. Daminov B.Z. "Arab tili (60220100-Dinshunoslik talabalari uchun A2 darajasi uchun tinglab tushunish matnlari bo'yicha) dasturiy majmua". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi № DGU 26466. 16.06.2023.
3. Ибрагимов И.Д. Обучение основам владения арабским языком (начальный этап языкового вуза). Авт. дисс. ... канд.пед.наук. -Пятигорск. 2004. - Б. 14.
4. Илиева Л. К. Чет тил таълимида изчилликни таъминлашнинг лингво дидактик асослари. Дисс.пед. фан номзоди. — Т., 2007 — 150 б.



5. Аудиовизуальные и технические средства в обучении. /Под ред. Г.Г.Городиловой и Л.П.Мухина.- М.: МГУ, 1975.- 127 с.
6. Daminov B. Chet tilini o'rganishda nutqni tinglab tushunishdagi muammolar./ Islom tafakkuri (2-son) 2023
7. Daminov B. (2019). Actual problems of modern arabic language. The light of islam, 2019(4), 20 с.
8. Daminov B. (2021). Pedagogical ability in teacher activity. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 571–573.
9. Daminov B. (2021). Pedagogical ability in teacher activity. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 571–573. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/549>.